

ABDULLA QAHHORNING TILGA MUNOSABATI VA QARASHLARI TAHLILI

Isroilova Guljahon Jamolovna

Annotatsiya. Ushbu maqola O'zbekiston halq yozuvchisi Abdulla Qahhorning til haqidagi qarashlari, unga bo'lgan munosabati, so'zlardan foydalanish haqidagi fikrlari tahlilga tortilib, yozuvchining adabiy til taraqqiyotidagi o'rni ko'rsatib berilgan.

Kalit so'zlar. Nutq madaniyati, aniqlik, qisqalik, grammatik, semantik, sintaktik birikish, so'z tanlash mahorati.

Adabiy til taraqqiyotida so'z ustalarining xizmatlari kattadir. Aslida adabiy til tushunchasi ularning faoliyati bilan bevosita bog'liq. Yozuvchilar tilda mavjud birliklardan foydalanar ekan, ulardan fikrni eng to'liq va aniq qilib yetkazib beradigan vositalarni tanlaydi. Yozuvchining tilga ana shunday munosabati, uning so'z tanlash san'ati adabiy til rivojida muhim rol o'ynaydigan omillardan biridir. I.Qo'chqortoyev yozuvchining adabiy til taraqqiyotidagi o'rnini belgilashda faqatgina u yaratgan yangi so'z va iboralar bilan cheklanib qolmasdan, o'sha yozuvchining nutq ravonligi, adabiy tilning sofliigi va ta'sirchanligi uchun kurashi to'g'risida fikr yuritish lozimligini ta'kidlaydi.

Shu ma'noda nafaqat o'zbek adabiyoti va ma'naviyatini o'lmas asarlar bilan boyitgan, balki o'zbek tilining boy tasviriy imkoniyatlaridan mahorat bilan foydalangan va shu bilan birgalikda tilimizning obro'si, uning dunyodagi rivojlangan tillar qatoridan mustahkam joy olishi, sofliigi uchun kurashgan fidoyi inson, til sehrini mukammal tushungan zukko olim, O'zbekiston xalq yozuvchisi Abdulla Qahhorning til haqidagi qarashlari, unga e'tibor masalasidagi fikrlarini o'rganish muhim hisoblanadi.

Adib turli yig'ilish va majlislarda so'zlagan nutqlarida, tahririyatga yo'llagan maktublarida, yosh qalamkashlarning mashqlarini tahlil va tahrir qilish jarayonida til masalasi, uni qo'llash mahorati haqida ko'plab fikrlarni bayon etgan.

Yozuvchi bilan "chorak asr hamnafas" yashagan Kibriyoxonim Qahhorova o'z esdaliklarida uning til taraqqiyoti, tilning sofliigi, go'zalligi kabi masalalarga kuyunchaklik bilan bo'lgan munosabati haqida quyidagicha yozadi: "Qayerda bo'lmasin, Abdulla Qahhor minbarga chiqqanda aytadigan so'zlarining zamirida albatta til masalasi yotar edi"[5, 96]. "Eng avvalo o'zlari yozadigan har bir so'zni fikr tarozusida obdan o'lchardilar.

Abdullar Qahhorning biror kalima soʻzini oʻrnidan jildirib boʻlmaydi, hammasi bamisoli ipga tizilganday. Turgan gap bularning hammasi uzoq mehnatning samarasi.

Biror yozuvchi yoki shoir oʻzbek tilining nazokatini buzsa, ming yaqin, ming jonajon doʻstlari boʻlsa ham, uni ayab oʻtirmasdilar”[5; 26].

Maʼruf Hakimning asarlari tili haqida fikr yuritgan adib shunday yozadi; “Modomiki, adabiyotda obraz soʻz-til vositasida yaratilar ekan, modomiki, “til-adabiyotning eng birinchi elementi va faktlar, turmush hodisalari bilan birga uning materiali” (Gorkiy) ekan, tilni, uning qonun-qoidalarini, xususiyatlarini, ishlatilishini oʻrganishga harakat qilish adibning eng asosiy vazifasi boʻlishi kerak.

Kitobxonga bir fikrni anglatish yoki bir narsani tasavvur qildirish uchun kishining boshini qotirmaydigan, ochiq, ravon va sodda til kerak. Surat oldirayotgan kishi suratga chiroyli tushmoqqa behuda zoʻr berib, oʻzining tabiiy holatini buzganiday, yozuvchi “chiroyli” va “qoyil qilib yozishga” behuda zoʻr bersa, adabiy asar uchun zarur boʻlgan tildagi soddalik, tabiiylik buziladi” (“Hayot qoʻshigʻi”). Maʼruf Hakimning “Rashk” hikoyasi tili xususida shunday yozadi: “... jalanglab turgan qora koʻzlari koʻzimga sanchilar edi”. Shunday vaqtda “sanchildi” degan soʻz ruschada qoʻllaniladi. Lekin oʻzbekchada hech qachon aytilmaydi. Oʻzbekcha bilgan rus yozuvchisi qandoq qilib “yuragim tutday toʻkildi” degan gapni aynan tarjima qilib ishlatadi.

Oʻzbek tilida soʻzlarni oʻzaro biriktirib soʻz birikmalari, gap, matn tuzishda soʻzlarning asosan uch jihati: semantik, sintaktik, grammatik birikishlari hisobga olinadi. Yuqorida keltirilgan “sanchildi” soʻzining sintaktik va grammatik valentligini koʻz soʻzi toʻldirishi mumkin, ammo semantik valentligini toʻldira olmaydi. Bizga maʼlumki, semantik valentlik soʻzlarning oʻzaro maʼnolari orqali munosabatga kirishishini koʻzda tutadi. Buni *sanchilmoq* soʻzining semik tahlili asosida koʻrish mumkin.

Sanchilmoq aslida “sanchmoq” feʼlining oʻzlik va majhul nisbatdagi shakli sanalib, unga OʻTILda quyidagicha izoh keltiriladi:

Sanchmoq-uchi oʻtkir narsani kuch bilan bosib yoki zarb bilan urib kirgizmoq: suqmoq, tiqmoq, botirmoq[7, 436].

Bundan koʻrinib turibdiki, oʻzbek tilida sanchilish uchi oʻtkir narsalar (pichoq, sanchqi, choʻp, tigʻ va boshqalar)ga, koʻchma maʼnoda esa kipriklarga xos xususiyat sanaladi. Koʻzlar esa tikilishi mumkin.

Adib oʻz fikrini davom ettirib, yozadi: “ “Yashasin doʻstlik”da shamol bilan shabadaning farqiga bormaydi. Uningcha, “Ochiq derazadan mayning mayin shamoli esadi”.

OʻTILdan shamol va shabadaning taʼrifini keltiramiz:

Shamol - (a.- shimoliy shamol, sovuq shamol) Havoning yer sathi bo'ylab (gorizontal) harakati[7].

Shabada – Yengil, mayin shamol. Subhidam shabadasi. Oqshom shabadasi. Bahor shabadasi[1;52]. To'g'ri, grammatik, semantik jihatdan olib qaraganda shamol ham, shabada ham esmoq fe'lining valentligini to'ldirishi mumkin. Ammo mantiqiy, ma'no nozikliklarini hisobga olganda, bu joyda shamoldan ko'ra shabadaning keltirilishi to'g'riroq bo'lardi. Chunki “mayinlik” semasi shabbodada kuchliroq ifodalanadi.

Yozuvchining til ilmini chuqur bilganligi, undagi har bir so'zning ishlatilishiga alohida e'tibor berganligini quyidagi so'zlarda ham ko'rish mumkin: “Bo'ta”da chol “eh-he” deb yo'taladi. “Qahramonning o'limi”da bomba “bux” deb yoriladi. Bular ham ruschadan aynan ko'chirilgan. Bilamizki, taqlid so'zlarning har bir tilda o'z ko'rinishi bo'ladi. Xuddi shuningdek, ruschada “eh-he”deb yo'talsa, o'zbek tilida yo'talish “o'ho” yoki “o'hho”shakliga ega bo'ladi.

“Haqiqiy shoir chuqur, ta'sirli so'zi, haqiqiy san'atkor artist san'ati bilan olqish olishi kerak”. Tilning butun go'zalligini o'zida namoyon etadigan, kishilarning ma'naviy olamini yuksaltiradigan, dunyoqarashini shakllantiradigan o'ziga xos bir maydon, shubhasiz, badiiy adabiyotdir. Bu, o'z navbatida, adabiyot vakillaridan katta mas'uliyatni talab qiladi. U xoh shoir bo'lsin, xoh yozuvchi bo'lsin o'z umri, ijodi davomida tilning butun go'zalligini, nozikliklarini, boyliklarini, har bir so'z, ibora, jumlaning ma'no qirralarini o'rganishga, xalq tilini kuzatib borishga asosiy e'tiborini qaratmog'i lozim. Abdulla Qahhorning til ilmini mukammal bilganligi, umri davomida xalq tilini, undagi nozik so'z va iboralarni, qochiriqlarni o'rganib borganligi haqida ko'plab dalillar bor. Xalq tili, unda qo'llaniladigan so'z va iboralar adabiy til boyishining muhim manbasi hisoblanadi. Yozuvchining umr yo'ldoshi Kibriyo Qahhorova shunday yozadi: “Yondaftarda hatto kulgining necha xil bo'lishi yozib qo'yilgan:

1. Kuldi
2. Qahqaha urdi
3. Iljaydi
4. Jilmaydi
5. Tirjaydi
6. Burni bilan kuldi
7. Og'zining tanobi qochdi
8. Kulimsiradi
9. Tabassum qildi
10. Zaharxanda qildi
11. Xandon tashlab kuldi.

Keltirib o'tilgan fikr adibning xalq tilini har qadamda sinchiklab o'rganganligining yorqin dalilidir.

Adibning tilga naqadar kuyunchakligini uning quyidagi fikrlari orqali ham ko'rish mumkin: "Sizlar qayerdan kelgansizlar, institutni bitirganlaringdan keyin joylarga borib o'quvchilarga ingliz, nemis, fransuz, ispan tillarini o'rgatasizlar. Mening sizlarga aytadigan eng zarur gapim shuki, sizlar joylarga chet tillar bilan birga, balki birinchi navbatda o'z ona tilimizga – o'zbek tiliga cheksiz muhabbat tuyg'usini olib boringlar! O'zbek tili g'oyat boy, nihoyatda chiroyli, har qanday fikru tuyg'uni ifoda qilishga qodir ekanini amalda ko'rsatinglar; qayerda va qanday sharoitda ishlamanglar, til madaniyatimizning mash'ali bo'linglar!

Men bu gapni tilimizning boyligiga daxl qiladigan, husn-latofatini buzadigan, tilimizni tahqir qilishga qaratilgan qiliqlarga barham berish maqsadidagina aytayotganim yo'q. Bu gapning faqat tilimizgagina emas, davlatimizga, tuzumimizga ham aloqasi bor.

Modomiki, tildagi so'zlar, atamalar shu til egalari bo'lgan xalqning hayot tarzini, tarixini, turmush sharoitlarini, psixologiyasini ifoda etish ehtiyojidan tug'ilar ekan, tilning butun qudrati, rivojlanishi shu xalqning o'zi bilan yashashiga bog'liq bo'ladi.

Ko'pgina oilalarda bolalar o'z ona tilisini mutlaqo bilmaydi! Bu ota-onani zarracha ham tashvishga solmaydi. Ba'zi bir oilalarda bola o'z ona tilisida gapirgani nomus qiladi!

O'zbekistonda "millatim o'zbeku ona tilim rus tili", deb yozadigan bir necha ming chala bor emish! Ana shu gap rost bo'lsa, demak, O'zbekistonda falon ming o'zbek o'z ona tilisini yo'qotipti, degan so'z! Nainki shu maqtanadigan gap bo'lsa!"[1; 249-251].

Adibning ushbu fikrlarida nafaqat o'sha davrdagi, balki hozirgi davrdagi tilimizga bo'lgan achinish va munosabat aks etgan deyish mumkin.

Tilshunos olim I.Qo'chqortoyev ta'kidlaganidek, nafaqat, yozuvchi asarlari tili, balki ularning til sofliqi, buyukligi, unga kuyunchaklik bilan bo'lgan munosabatini ham o'rganish adabiy til taraqqiyoti uchun munosib hissa bo'lib qo'shilishi shubhasiz. Bunga A.Qahhorning til sofliqi, nutq madaniyati, tanqidiy fikrlari misolida yana bir amin bo'ldik. Yozuvchining til boyliklaridan to'g'ri foydalanish uchun til egalari, ayniqsa yozuvchi, shoirlar, shu tildagi so'zlarning ma'no nozikliklarini farqlay olishlari, o'z fikrlarini xalq tiliga, diliga yaqin qilib ifodalashlarida tinimsiz o'qib-o'rganishlari lozimligi, foydalanilayotgan ibora, mubolag'alarni nutq talabi bilangina ishlatishlari, nutqning qisqa va ta'sirchan bo'lishiga harakat qilinishi kerakligi, chet tilini

o'rganish o'z tilini yaxshi bilish orqali amalga oshishi haqidagi fikrlari har bir davrning dolzarb muammolaridandir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Abdulla Qahhor. Asarlar, besh jildlik, beshinchi jild.- T. G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1989.- 272 b.
2. Isroilova M. Comparative phraseological units-as an integral part of publicistic texts //international scientific conferences with higher educational institutions. – 2023. – T. 3. – №. 08.05. – C. 139-143.
3. Jamolovna I. M. Emotional and evaluative components of comparative phraseological units //Galaxy International Interdisciplinary Research Journal. – 2023. – T. 11. – №. 5. – C. 49-52.
4. Isroilova M. The stylistic role of comparison in publicistic texts //Scientific Impulse. – 2023. – T. 1. – №. 9. – C. 196-198.
5. Qahhorova K. Chorak asr hamnafas. (O'zbekiston xalq yozuvchisi Abdulla Qahhor haqida o'ylar) – Toshkent. 1987, - 96 b.
6. Qo'chqortoyev I. Badiiy nutq stilistikasi. T.- 1995. 96 b.
7. O'TIL. 3-tom.
8. O'TIL. 4-tom.
9. O'TIL. 5-tom.